TSUE

YASHIL

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№5

ISSN: 2992-8982

https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/

2026

YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Elektron nashr. 2026-yil, may.

Bosh muharrir:
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o‘rinbosari:
Karimov Norboy G‘aniyevich

Muharrir:
Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay’ati:
Salimov Oqil Umrzoqovich, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, “Nobel” mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a’zosi, Turkiya – O‘zbekiston do‘stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G‘afforovna, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug‘aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko‘nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo‘ja o‘g‘li, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o‘g‘li, O‘zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig‘i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o‘rinbosari
Ochilov Farkhod, O‘zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig‘i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o‘g‘li, texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o‘g‘li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o‘g‘li, TDIU katta o‘qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra’no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor Genera's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow))
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:
Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po‘latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
G‘afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o‘qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja’sur Artiqboy o‘g‘li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:
Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Khusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Rakhimovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: “Ma’rifat-print-media” MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:
““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali
O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

MUNDARIJA

SANOAT KORXONALARINING IQTISODIY SALOHIYATINI OSHIRISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING O‘RNI 18
O‘rinov Akmaljon Ahmadjonovich
Siddiqov Javlonbek Sodiqjon o‘g‘li
XORAZM VILOYATIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING JORIY HOLATI VA RIVOJLANISH OMILLARI TAHLILI 22
Ro‘zmatova Farahongiz Bekmurotovna
ENERGETIKA INFRATUZILMASINING HUDUDIY RIVOJLANISH VA IJTIMOIY TENGLIKKA TA’SIRI 27
Babajanova Dilfuza Abdurasulovna
HUDUDLARDA LOKAL TURIZM XIZMATLARINING TARKIBI VA RIVOJLANISH DINAMIKASI TAHLILI (ANDIJON VILOYATI MISOLIDA) 32
Xasanova Mavjuda Ma’mirjonovna
TURIZM MAVSUMIYLIGI OMILLARINING KOMPLEKS TAHLILI: TASNIFLASHNING KONSEPTUAL VA INTEGRATSION MEXANIZMLARI 41
Barotov Umidjon Mahmud o‘g‘li
BOSHQARISH SIFATI MOHIYATI VA UNI OSHIRISHNING OBYEKTIV ZARURIYATI 48
Shoyev Davronbek Axmadjonovich
Abdullayeva Gulsanam
ENGLISH LOANWORDS IN RUSSIAN AND UZBEK: TERMINOLOGICAL ADAPTATION WITHIN A COMPARATIVE LINGUISTICS FRAMEWORK 53
Kambarova Liliya Ruslanovna
РОЛЬ ГОСУДАРСТВА В ФОРМИРОВАНИИ ИННОВАЦИОННОЙ ЭКОНОМИКИ И ПРИВЛЕЧЕНИИ ИНВЕСТИЦИЙ 56
Алибекова Саодат Лапасовна
EKSPORTGA YO‘NALTIRILGAN SANOAT KORXONALARIDA MARKETING XIZMATINI TASHKIL ETISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI 61
Usmonova Dilfuza Ilxomovna
O‘ZBEKISTON INDIVIDUAL SPORTCHILARINI TAYYORLASH TIZIMI BOSHQARUVIGA RAQAMLI TA’LIM TEXNOLOGIYALARI JORIY ETISHNING SAMARALI USULLARI 66
Junaydullayev Mels Asliddin o‘g‘li
KORXONA IQTISODIY BARQARORLIGINI TA’MINLASHDA ERP TIZIMLARINING SAMARADORLIGINI BAHOLASH 72
Xaydarova Kamola Axinjanovna
Berdiqulov Suhrob Berdiqul o‘g‘li
KORPORATIV BIRLASHISHLAR VA QO‘SHIB OLISHLAR: NAZARIY ASOSLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI 78
Latipova Shaxnoza Maxmudovna
Xolmurodova Sevara Asqarovna
DAVLAT BUDJETI KAPITAL XARAJATLARIDA RISKLARNI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH 84
Guzal Navruzova
KORXONALARNING INNOVATSION RIVOJLANISHINI TA’MINLASHDA INVESTITSIYA VA MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARI 88
Mamayeva Diyora Kurbanbayevna
MARKAZIY VA JANUBIY O‘ZBEKISTON MINTAQALARI SANOATIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK KO’RSATGICHLARI HOLATI 94
Uralov Eliboy Omonovich

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

O‘ZBEKISTONDA YOSHLAR TURIZMINI RIVOJLANTIRISHDA XALQARO TAJRIBALARNI QO‘LLASH 100
Dilfuza Xamzayeva
Xurshid Xurramov

TO‘QIMACHILIK SANOATINI RIVOJLANTIRISHDA STRATEGIK YONDASHUVLARDAN FOYDALANISH 106
Otaxonova Roza Boboxon qizi

APPLICATIONS OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN THE DEVELOPMENT OF BANKING SERVICES 111
Mamutova Aygul Kalmurzaevna, Yaxyayeva Inobat Karimovna

INVESTITSIYANING EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISHDAGI ASOSIY IMKONIYATLARI 118
Rapikov Toxirjon Yuldashbayevich

XIZMATLAR SOHASIDA RAQAMLI MARKETINGDAN FOYDALANISHNING METODOLOGIK ASOSLARI 122
Yahyoxonov Niyozxo‘ja Bahroil o‘g‘li

ALOQA KORXONALARI MOLIYAVIY BARQARORLIGIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLARNING EKONOMETRIK TAHLILI VA PROGNOZLARI 128
Ismailov Xusanboy Mahammadqosim o‘g‘li

YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA DAVLAT IQTISODIY BOSHQARUVINING ROLI VA AHAMIYATI 133
Xatamova Gavhar Kiyamovna

QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASIDA SUV TEJOVCHI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNI DAVLAT TOMONIDAN MOLIYAVIY QO‘LLAB-QUVVATLASHNI TAKOMILLASHTIRISH 138
Seitnazarov Baxadir Muratbaevich

KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING TASHQI SAVDO FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI 144
Ismailov Erkin Faxretdinovich

THE ROLE OF INNOVATIVE MARKETING STRATEGIES IN THE GLOBAL BUSINESS ENVIRONMENT 148
Aziz Kurbanovich Abdullaev, Nigora Fayzulla kizi Sayfullaeva, Maftuna Rustambek kizi Khojiakbarova

AGROKLASTER – AGRAR SOHANING RIVOJLANISH NUQTASI 154
Boltayev Nazarbek Narzullayevich

RAQAMLI BANKLAR RESURS BAZASINI OPTIMALLASHTIRISH IMKONIYATLARI 159
Jumayev Muzaffar Mahmud o‘g‘li

O‘ZBEKISTON DON SANOATIDA RISKLARNI BOSHQARISH VA UNING STRATEGIYASINI RIVOJLANTIRISH 164
Kurbanova Nigora Abduraxmanovna

RESPUBLIKAMIZDA AGROLOGISTIKA XIZMATLARI VA UNING SAMARADORLIGI 169
Azizova Dilafruz Habibullayevna

INVESTITSIYA LOYIHALARINI KOMPLEKS EKSPERTIZA QILISH VA BAHOLASHDAGI MUAMMOLAR 172
Ulashev Jahongir Xushmuradovich, Baxriddinova Yulduz Baxriddin qizi

O‘ZBEKISTON ENERGETIKA TARMOG‘INING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI 176
Yusupov Ulug‘bek Shukrullayevich, Kodirova Xilola Joxongir qizi

IQTISODIYOTNI RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA BUDJETGA SOLIQ TO‘LOVLARINI HISOBGA OLISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH 183
Azimova Feruza Payziyevna, Madaminjonov A.

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA MEHMONXONA XIZMATLARIDA VAQTNI BOSHQARISHNING XIZMAT SAMARADORLIGIGA TA’SIRI 188
Tolipova Malika Saloxidinovna

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

AGROKLASTERLARNI TASHKIL ETISH — QISHLOQ XO‘JALIGI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING MUHIM OMILI (QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI MISOLIDA) 192
Yeshimbetov Uktamjon Xudaybergenovich

O‘ZBEKISTON TO‘QIMACHILIK SANOATI KORXONALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINI MHXS ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH 198
M.I. Murodova

“YASHIL” INVESTITSIYA LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISH ORQALI BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARIGA ERISHISH MEXANIZMLARI 203
Muxtorov Ilhom Avazjon o‘g‘li

O‘ZBEKISTONDA SANOATNING YASHIL TRANSFORMATSIYASI VA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA OMILLARINING IQTISODIY O‘SISHGA TA’SIRI 211
Qo‘ziboyev Behzod Hamidovich

IJTIMOIY HIMOYA TIZIMIDA MOLIYAVIY RESURSLARNI SAMARALI TAQSIMLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH 216
Sharoxmatov Abduraxim Abdulamitovich

DON MAHSULOTLARI KORXONALARIDA RESURSLARDAN FOYDALANISHNING IQTISODIY AHAMIYATI 221
Aipova Iroda Ikramovna

ISHLAB CHIQARISH KORXONALARIDA MARKETING BOSHQARUVINING HOLATINING TAHLILI 226
Musayeva Shoira Azimovna

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONLARINI BOSHQARISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI: XALQARO TAJRIBA VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR 232
Egamova Komila Bekchon qizi, Nasirova Kamola Alimovna

РОЛЬ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ В ТРАНСФОРМАЦИИ К ЗЕЛЁНОЙ ЭКОНОМИКЕ: ПРОСТРАНСТВЕННЫЙ АНАЛИЗ АНДИЖАНСКОГО РЕГИОНА 239
Кадырова Лола Алимджановна, Эгамов Бахтиёржон Нурметович

REAL SEKTOR KORXONALARINI MOLIYALASHTIRISHDA ISLOM MOLIYASINING O‘RNINI OSHIRISH 246
Sevara Hakimova Rustam qizi

TIJORAT BANKLARI DAROMADLARI TARKIBI VA DINAMIKASINING STATISTIK TAHLILI 251
Abdukaxarova Shoira Abduvaxobovna

YASHIL INNOVATSIYALARNI MOLIYALASHTIRISH VA AMALGA OSHIRISH IQLIM O‘ZGARISHLARIGA MOSLASHISHNING ASOSIY OMILI SIFATIDA: TIZIMLI TAHLIL VA KELGUSI TADQIQOT YO‘NALISHLARI 255
Turanov Suhrob Bahodir o‘g‘li

OLIY TA’LIM MUASSASALARI MEDIA IMIJINI KAPITALLASHTIRISHNING MOLIYAVIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISHDA YANGI YONDASHUVLAR 262
Nazarov G‘ulom Akmal o‘g‘li

“YASHIL IQTISODIYOT” VA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINI JORIY QILISH TA’LIMINI TASHKIL ETISH: ADABIYOTLAR SHARHI VA RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR TAJRIBASI ASOSIDA NAMUNAVIY O‘QUV DASTURLARINI ISHLAB CHIQISH USLUBIYOTI 269
Raxshona Nabibullayeva

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA LIZING HISOBINI METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH 275
Baxadirov Alisher Komilovich

TIJORAT BANKLARNING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI 281
Nomozov Umid Iskandarovich

GLOBAL BRANDING VS. LOCAL BRANDING: STRATEGIC TRADE-OFFS IN INTERNATIONAL MARKETING 285
Aziz Kurbanovich Abdullaev, Mamasolieva Kamila, Akhmedova Zaynabkhon Khayrullo qizi

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

QISHLOQ XO‘JALIGI ISHLAB CHIQARISHIDA RISKLARNI BOSHQARISH VA SUG‘URTA TIZIMINING NAZARIY ASOSLARI 293
Sayfutdinova Soxiba Abdugafurovna

XORIJIY MAMLAKATLARDA BIZNES INKUBATORLAR FAOLIYATINING INSTITUTSIONAL MODELI, RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA ILG‘OR TAJRIBALARI 297
Fazliddinov Shohruh Shamsiddinovich, Odilov Akmal Baxrom o‘g‘li, Atayeva Hulkaroy Murod qizi

XALQARO TAJRIBALARDA KICHIK KASSA AMALIYOTINI JORIY QILISH MASALALARI 302
Eshonqulov Akmal Qudratovich

O‘ZBEKISTON KICHIK VA O‘RTA KORXONALARI O‘RTASIDA RAQAMLI MARKETINGNI QO‘LLASHDAGI TO‘SIQLAR 306
Raxmatova Sitora Shuhratjon qizi

IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH SHAROITIDA DON MAHSULOTLARINI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARINING BOSHQARUV HISOBINI TASHKIL ETISH 316
Xamidova S.Ya.

KORXONALAR AUDITIDA BLOKCHEYN TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI 322
Ro‘zieva Gulchexra O‘sarovna

NATIJAGA YO‘NALTIRILGAN BUDJETLASHTIRISHGA O‘TISHDA DASTURIY BUDJETLASHTIRISH TIZIMINI JORIY ETISH ISTIQBOLLARI 328
Ubaydullayeva Oydinoy Xabibullayevna

O‘ZBEKISTONDA FISKAL BARQARORLIKNI TA’MINLASH YO‘LLARI 333
Isomiddinova Xilola Xasan qizi

ЛЁГКАЯ ПРОМЫШЛЕННОСТЬ РОССИИ И УЗБЕКИСТАНА: СРАВНИТЕЛЬНЫЕ ПРЕИМУЩЕСТВА, ЭКСПОРТНО-ИМПОРТНАЯ СПЕЦИАЛИЗАЦИЯ И ПЕРСПЕКТИВЫ ПРОИЗВОДСТВЕННОЙ КООПЕРАЦИИ 338
Муниса Турдибаева

O‘ZBEKISTONDA SUT ISHLAB CHIQARISH DINAMIKASI VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI 350
Xamdamova Guljaxon Ablakulovna

AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA QIMMATLI QOG‘OZLAR BILAN OPERATSIYALARNI TAKOMILLASHTIRISH 357
Malikova Ug‘iloy Abdurasul qizi

O‘ZBEKISTONDA IQTISODIY O‘SISH VA CO_2 EMISSIYASI: EKOLOGIK KUZNETS EGRI CHIZIG‘I (EKC) ASOSIDA TAHLIL 363
Choriyev Maxmayoqub

YIRIK KIMYO SANOATI KORXONALARIDA RISK-MENEJMENT JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI: ZAMONAVIY TAJRIBA VA “NAVOIYAZOT” AJ AMALIYOTI 368
Sayidova Shahlo Toshtemirovna

BOJXONA HUDUDIDA QAYTA ISHLASHNING TASHKILIY-BOSHQARUV MEXANIZMINI STRATEGIK TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI 373
Lutpullayev Shukrullo Qudratullayevich

PAXTA-TO‘QIMACHILIK KLASTERLARNING EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISH MODELI 381
Mamasoliyev G‘ayratbek Maxamadyusupovich

ICHKI NAZORAT TIZIMI SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING INTEGRATSIYALASHGAN METODIKASI 386
Qo‘ldosheva Xolisa

O‘ZBEKISTON MOLIYA TIZIMIDA DAVLAT MOLIYAVIY NAZORAT MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI 393
Hakimov Nodir Nazarovich

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

SURXONDARYO VILOYATI IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA DRAYVER TARMOQLARNING O‘RNI VA YASHIL IQTISODIYOTGA O‘TISH ISTIQBOLLARI 399
Erdanayev Bunyodjon Abdumalikovich

TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI VA UNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI 404
Yusupov Ravshanbek Aminbaevich

ВОПРОСЫ РАЗВИТИЯ ОРГАНИЧЕСКОГО СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ НА ОСНОВЕ “ЗЕЛЁНОЙ ЭКОНОМИКИ” 410
Джумаев Аскар Хайдарович

UNIVERSITETLARDA NATIJA MEZONLARINI JORIY QILISH VA MAGISTRATURA BOSQICHIDA QISQARTIRILGAN ISH VAQTI MAOSHI ORQALI BUDJET YUKLAMASINI KAMAYTIRISH 415
Primova Nigora Ikrom qizi

SURXONDARYO VILOYATI TASHQI SAVDOSINING TARKIBIY XUSUSIYATLARI 422
Mamadjanova Tuyg‘unoy Axmadjanovna

SURXONDARYO VILOYATI TASHQI SAVDOSINING TARKIBIY XUSUSIYATLARI

Mamadjanova Tuyg‘unoy Axmadjanovna
Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Urganch davlat universiteti
i.f.f.d., dotsent mustaqil tadqiqotchisi
E-mail: tuygunoy_mamadjanova@tues.uz

Annotatsiya. Mazkur maqolada Surxondaryo viloyati tashqi savdosining 2010–2025-yillardagi tarkibiy xususiyatlari rasmiy statistik ma’lumotlar asosida tahlil qilindi. Tadqiqotda tashqi savdo aylanmasi, eksport va import dinamikasi hamda savdo balansidagi o‘zgarishlar o‘rganildi. Natijalar tashqi savdo hajmi 790,9 mln AQSh dollariga yetganini va eksportning 507,5 mln dollarni tashkil etganini ko‘rsatdi. Eksport tarkibida agrar mahsulotlar ustunligi saqlanib qolgan holda, qimmatbaho metallar va sanoat tovarlari ulushi oshgani aniqlandi. Import tarkibida texnologik mahsulotlar ustuvorligi qayd etildi. Geografik jihatdan MDHdan tashqari davlatlar ulushi kengaygani kuzatildi.

Kalit so‘zlar: tashqi savdo, eksport, import, Surxondaryo, diversifikatsiya, savdo balansi.

Abstract. This paper analyzed the structural characteristics of foreign trade in the Surkhandarya region for 2010–2025 based on official statistical data. The study examined foreign trade turnover, export and import dynamics, and changes in the trade balance. The results showed that total trade reached USD 790.9 million, with exports amounting to USD 507.5 million. Agricultural products remained dominant in the export structure, while the share of precious metals and industrial goods increased. Imports were mainly composed of technological products. Geographical analysis indicated an expansion of trade beyond CIS countries.

Key words: foreign trade, export, import, Surkhandarya, diversification, trade balance.

Аннотация. В статье проведен анализ структурных особенностей внешней торговли Сурхандарьинской области за 2010–2025 годы на основе официальных статистических данных. Рассмотрены динамика внешнеторгового оборота, экспорт и импорт, а также изменения торгового баланса. Результаты показали рост внешней торговли до 790,9 млн долларов США и увеличение экспорта до 507,5 млн долларов. В структуре экспорта сохраняется доминирование аграрной продукции при одновременном росте доли драгоценных металлов и промышленных товаров. В импорте преобладают технологические товары. Географическая структура свидетельствует о расширении торговли за пределами стран СНГ.

Ключевые слова: внешняя торговля, экспорт, импорт, Сурхандарья, диверсификация, торговый баланс.

KIRISH

Mintaqaviy iqtisodiyotning barqaror o‘sishi ko‘p jihatdan tashqi iqtisodiy aloqalar tartibi va sifati bilan belgilanadi. Hududiy darajadagi tashqi savdo nafaqat mahalliy ishlab chiqarish hajmlarini xorijiy bozorlar bilan bog‘lovchi mexanizm sifatida xizmat qiladi, balki investitsiyaviy oqimlarni jalb qilish, ish bilan ta’minlanganlik ko‘rsatkichlarini yaxshilash va texnologik modernizatsiyani jadallashtirish vositasi sifatida ham ma’lum o‘rin egallaydi. Mintaqaning eksport va import oqimlari tarkibidagi nisbiy salmoqning o‘zgarishi hududiy ishlab chiqarish strukturasidagi siljishlarni aks ettiradi va iqtisodiy faoliyat turlarining xalqaro mehnat taqsimotidagi ulushini ko‘rsatadi.

Surxondaryo viloyati O‘zbekistonning janubiy chegarasida joylashgan bo‘lib, Afg‘oniston, Tojikiston va Turkmaniston davlatlari bilan transport-logistika aloqalariga ega. Geografik holat bilan birgalikda, viloyat agroiqlim resurslari, paxta-to‘qimachilik klasterlarining mavjudligi hamda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish potensiali tashqi savdo strukturasini shakllantiruvchi asosiy omillar qatoriga kiradi [1].

So‘nggi o‘n yillikda O‘zbekistonda valyuta tartibga solinishining liberallashtirilishi, eksport rejimlarining soddalashtirilishi va elektron deklaratsiyalash tizimining keng joriy qilinishi mintaqaviy tashqi savdoga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi [2]. Surxondaryo viloyati uchun ushbu islohotlar tashqi savdo aylanmasining kengayishi, eksport geografiyasining boyitilishi va tovarlar nomenklaturasining diversifikatsiyalanishida o‘z aksini topdi.

Maqolaning maqsadi - Surxondaryo viloyati tashqi savdosining 2010-2025-yillar oralig‘idagi tarkibiy o‘zgarishlarini ko‘rib chiqish, eksport va import oqimlaridagi geografik hamda tovar konsentratsiyasini aniqlash

va olingan empirik natijalar asosida nazariy umumlashmalar shakllantirishdir. Vazifalar quyidagilar bilan belgilandi: viloyat tashqi savdo dinamikasini bosqichlar bo‘yicha tabaqalashtirish; eksport va import tarkibidagi yetakchi tovar guruhlarini ajratib ko‘rsatish; geografik diversifikatsiya darajasini baholash; mintaqaning savdo balansidagi tarkibiy siljishlarni izohlash.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tashqi savdo tarkibini o‘rganish iqtisod fanida uzoq tarixiy zaminga ega bo‘lib, klassik iqtisodchi D. Rikardo tomonidan ishlab chiqilgan qiyosiy ustunlik nazariyasi mintaqalararo savdo oqimlarini izohlashda hozirgacha asosiy nazariy ramka sifatida saqlanib kelmoqda [3]. Keyinroq Hekscher-Olin modeli omillar bilan ta’minlanganlik tushunchasini iqtisodiy tahlilga kiritib, mintaqalar o‘rtasidagi tovar ayirboshlash naqshini ishlab chiqarish resurslariga bog‘liq holda izohlash imkoniyatini berdi. Yer, mehnat va kapital nisbati bo‘yicha mintaqaviy farqlanish hududiy eksport ixtisoslashuvining empirik asosi sifatida tan olindi.

Mintaqaviy ixtisoslashuvni tahlil qilish bo‘yicha M. Porter tomonidan taklif etilgan klaster yondashuvi va raqobatdosh ustunlik konsepsiyasi hududiy tashqi savdo tarkibini global qiymat zanjirlari kontekstida ko‘rib chiqishga yo‘l ochdi [4]. Ushbu yondashuv qo‘shilgan qiymat zanjirlarining geografik yoyilishini hisobga olgan holda mahalliy ishlab chiqaruvchilarning xalqaro raqobatbardoshlik darajasini baholash uchun metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Klaster tahlili mintaqa eksport portfelini sof tovar oqimi sifatida emas, balki ishlab chiqarish tarmoqlari o‘rtasidagi institutsional bog‘lanishlar tizimi sifatida idrok etishni taqozo qiladi.

Markaziy Osiyo davlatlari uchun tashqi savdo masalalari Jahon banki [5] va UNCTAD [6] tahliliy hisobotlarida muntazam yoritib boriladi. Eksport diversifikatsiyasi, transport koridorlarining iqtisodiy samarasi va savdo logistikasi sifatining mintaqaviy o‘sishga ta’siri masalalari empirik baholashlar yordamida asoslangan. Xalqaro Valyuta Jamg‘armasining mamlakat bo‘yicha hisobotlarida O‘zbekiston tashqi savdosining strukturaviy zaifligi va xom-ashyoga bog‘liqlik darajasini pasaytirish bo‘yicha tavsiyalar shakllantirilgan [7].

O‘zbekiston tashqi savdosi tarkibiy o‘zgarishlari mahalliy iqtisodchilar tomonidan tadqiq qilinib, agrar mahsulotlar eksportining barqaror salmog‘i, sanoat tovarlari hissasining sekin o‘sish sur’atlari va texnologik importga bog‘liqlik kabi tendensiyalar aniqlangan. Hududiy darajada tashqi iqtisodiy aloqalar masalalarini yoritishda chegara mintaqalarining geografik mavqeyi, transport-tranzit funksiyasi va eksportga yo‘naltirilgan ishlab chiqarish dasturlarining roli yetakchi o‘ringa qo‘yiladi [8]. Mavjud adabiyotlar tarkibiy tahlil o‘tkazish uchun yetarli nazariy zamin yaratgan bo‘lsa-da, mintaqa tashqi savdosining geografik va tovar konsentratsiyasi dinamikasini birlashtirib ko‘rib chiqishga ehtiyoj saqlanib qolmoqda. Tovar tasniflari bo‘yicha xalqaro standart tizimlar - XSST va HS - tarmoq tahlilining empirik asosini ta’minlaydi [9].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasining 2010-2025-yillarni qamrab oluvchi rasmiy ma’lumotlariga asoslandi [1]. Empirik baza tashqi savdo aylanmasi, eksport va import hajmlari, savdo balansi saldosi ko‘rsatkichlari hamda Tovarlar tashqi iqtisodiy faoliyat klassifikatori (XSST/HS) bo‘yicha tovar guruhlari va davlatlar bo‘yicha taqsimot ma’lumotlarini qamrab oldi. Ma’lumotlar joriy narxlarda va dollar ekvivalentida qabul qilindi.

Tahlil quyidagi metodologik bosqichlardan tashkil topdi. Birinchidan, makro ko‘rsatkichlar dinamikasi yillik o‘sish sur’atlari va zanjirli indekslar yordamida hisoblab chiqildi. Ikkinchidan, eksport va import tarkibi tovar guruhlari bo‘yicha foiz salmog‘ini hisoblash orqali baholandi. Uchinchidan, geografik konsentratsiya darajasi MDH va MDH tashqarisidagi davlatlar guruhlari bo‘yicha taqsimot foizlari asosida aniqlandi. To‘rtinchidan, tashqi savdo balansining tarkibiy o‘zgarishi savdo defitsiti va profitsiti davrlarini o‘zaro qiyoslash orqali baholandi.

Tovar tarkibini xalqaro qiyoslanadigan formatda ifodalash uchun xalqaro standart sinflashtirish tizimi qo‘llanildi [9]. Mahsulot turlari bo‘yicha klassifikatsiyada XSST 2-raqamli kodi qabul qilindi, bu eksport va import oqimlarini iqtisodiy mazmunan birlashgan tovar guruhlariga ajratish imkonini berdi. Davriy taqsimot uchun 2010, 2013, 2015, 2018, 2020, 2022, 2024 va 2025-yillar mos yo‘nalish nuqtalari sifatida tanlab olindi: ushbu yillar institutsional islohotlar, makroiqtisodiy tebranishlar va pandemiya zarbalarining ma’lum darajada aks etishini qamrab oldi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Surxondaryo viloyatining tashqi savdo aylanmasi 2010–2025-yillar oralig‘ida 309,0 mln AQSh dollaridan 790,9 mln AQSh dollarigacha, ya’ni taxminan 2,6 baravar kengaydi. Davriy dinamika ichida bir necha xarakterli bosqichni ajratish mumkin. Birinchi davr 2010-2015-yillar tashqi savdoning nisbiy turg‘unligi bilan ajralib turdi: eksport hajmi 213,8 mln dollar atrofida saqlandi va savdo balansi musbat saldoga ega bo‘ldi. Ikkinchi davr 2016-2019 yillar import hajmining keskin o‘sishi, xususan 2017-yildagi 217,2 mln AQSH dollardan 2018-yildagi

397,3 mln AQSH dollargacha oshishi hisobiga savdo balansi defitsiti shakllandi va 2018-yilda -205,6 mln dollar darajasiga yetdi. Uchinchi davr 2020 – 2025-yillar pandemiyadan keyingi tiklanish, eksport diversifikatsiyasi hamda savdo balansining barqaror musbat saldosi bilan tavsiflandi.

Eksport oqimi 2010-yildagi 278,8 mln dollardan 2025-yilda 507,5 mln dollarga ko‘tarildi va davr mobaynida 1,8 baravar ortdi [1]. Import oqimi esa 30,3 mln dollardan 283,4 mln dollargacha - 9,3 baravar kengaydi. Bunday assimetrik o‘sish dinamikasi mintaqaning xalqaro mehnat taqsimotiga kirib borishi ko‘p bosqichli bo‘lganini, ba’zi yillarda investitsiyaviy import yetakchilik qilganini, so‘nggi davrda esa eksport potensialining yangi sifatga o‘tganini ko‘rsatdi (1-jadval).

1-jadval. Surxondaryo viloyatining tashqi savdosi asosiy ko‘rsatkichlari, mln AQSh dollar[1]

Yil	Tashqi savdo aylanmasi	Eksport	Import	Savdo balansi (saldo)
2010	309,0	278,8	30,3	248,5
2013	418,8	295,1	123,8	171,3
2015	264,7	213,8	50,9	162,9
2018	589,1	191,7	397,3	−205,6
2020	416,9	213,5	203,4	10,1
2022	372,7	227,4	145,2	82,2
2024	424,8	272,6	152,2	120,4
2025	790,9	507,5	283,4	224,2

Eksport tovar tarkibida 2025-yil yakuni bo‘yicha sabzavot-meva mahsulotlari hissasi 200,5 mln dollar yoki umumiy eksportning taqriban 39,5 foizini tashkil etdi [1]. To‘qimachilik tolasi va matolar eksporti 37,4 mln dollar darajasiga yetib, jami eksportning 7,4 foiz salmog‘iga ega bo‘ldi. Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar eksporti 24,0 mln dollar atrofida qayd etildi. Eksport tarkibida sezilarli o‘zgarish - qimmatbaho metallar guruhi (XSST 97-bandi, monetar bo‘lmagan tilla) eksportining 99,1 mln dollar darajasida shakllanishi bo‘ldi. Mahsulot guruhlari nuqtai nazaridan eksport portfelining geografik kengayishi bilan birga turdosh diversifikatsiya yuzaga keldi: an’anaviy agrar mahsulotlar bilan birga sanoat va xom-ashyo komponentlari ulushi oshdi.

Import tarkibida texnologik mahsulotlar va asbob-uskunalar yetakchi o‘ringa egalik qilishni saqlab qoldi. 2025-yilda aniq sohalar uchun maxsus mo‘ljallangan mashinalar bo‘yicha 37,0 mln AQSH dollar, elektr aloqasi va ovoz yozish uskunalari bo‘yicha 14,5 mln AQSH dollar, avtomobillar bo‘yicha 8,3 mln dollar, dori-darmon va farmatsevtika mahsulotlari bo‘yicha 8,2 mln AQSH dollar import qilindi [1]. Importning ushbu tarkibi viloyatda investitsiyaviy faollik darajasining saqlanganligi va sanoat infratuzilmasini modernizatsiyalash yo‘nalishidagi izchillikdan dalolat berdi (1-rasm).



1-rasm. Surxondaryo viloyati tashqi savdosi 2010-2025 yillar dinamikasi, mln AQSh dollar [1]

Geografik tuzilma bo‘yicha tahlil tashqi savdoning ikki asosiy oqimini ko‘rsatdi: MDH davlatlari bilan savdo aylanmasi 2025-yilda 120,4 mln AQSH dollar, MDH tashqarisidagi davlatlar bilan esa 670,5 mln AQSH dollar darajasida shakllandi. Savdo aylanmasida MDH ulushi 15,2 foizni tashkil etgan bo‘lsa, qolgan 84,8 foiz boshqa davlatlar guruhiga to‘g‘ri keldi. Asosiy eksport bozorlari sifatida Birlashgan Arab Amirliklari 200,9 mln dollar, Afg‘oniston 132,7 mln AQSH dollar, Pokiston 64,3 mln AQSH dollar, Rossiya Federatsiyasi 62,1 mln AQSH dollar hajm bilan ajralib turdi. Birlashgan Arab Amirliklari yo‘nalishidagi eksport hajmi 2024-yildagi 0,1 mln AQSH dollardan 200,9 mln AQSH dollargacha keskin kengaygani qimmatbaho metallar eksporti hisobiga yuz berdi.

Mintaqaning chegara mavqeyi Janubiy yo‘nalishdagi savdo oqimlarining barqaror o‘sishida muhim rol o‘ynadi. Afg‘onistonga eksport 2010-yildagi 15,3 mln AQSH dollardan 2025-yilda 132,7 mln AQSH dollargacha - 8,7 baravar - ko‘tarildi [1]. Pokiston yo‘nalishidagi eksport 2010-yildagi 12,3 mln AQSH dollardan 64,3 mln AQSH dollargacha kengaydi. Markaziy Osiyo qo‘shnilari bilan savdo aylanmasi nisbatan barqaror saqlangan holda, asosiy o‘sish ko‘p tomonlama savdo munosabatlari yo‘nalishida qayd etildi. Geografik tarkibdagi bunday siljish mintaqaning Janubiy Osiyo bozoriga yaqinligi va Termiz ko‘p tarmoqli logistika markazi salohiyatining faollashganligi bilan izohlanadi.

Savdo balansi saldosining o‘zgarish tendentsiyalari tarkibiy tahlilda alohida o‘rin tutadi. 2018-yilda -205,6 mln AQSH dollar darajasidagi defitsit asosan investitsiyaviy import oqimi bilan bog‘liq holda yuzaga kelgan bo‘lsa, 2020-yildan boshlab balans qaytadan musbat saldoga o‘tdi va 2025-yilda 224,2 mln AQSH dollar darajasiga ko‘tarildi [1]. Saldoning bunday qaytishi mahalliy ishlab chiqarish quvvatlarining ishga tushirilishi, eksportga yo‘naltirilgan loyihalarning samarali natija bera boshlashi va import oqimini ichki ishlab chiqarish hisobiga qisman almashtirilgan import siyosati bilan izohlanadi.

Tahlilning tarkibiy qirralari bo‘yicha quyidagi xulosalar shakllandi. Birinchidan, eksport tarkibida agrar mahsulotlar ulushi yetakchi o‘ringa egalik qilishni davom ettirgan bo‘lsa-da, qimmatbaho metallar va sanoat tovarlari hissasining oshishi diversifikatsiyani kuchaytirdi. Ikkinchidan, import tarkibida texnologik mahsulotlar va asbob-uskunalar ulushining saqlanishi viloyatdagi investitsiyaviy faollik dinamikasidan dalolat berdi. Uchinchidan, geografik tarkibda MDH tashqarisidagi davlatlarning ulushi sezilarli darajada ortdi, bu esa eksport bozorlarining xilma-xilligini kuchaytirdi. To‘rtinchidan, savdo balansining barqaror musbat saldoga o‘tishi mintaqaviy tashqi savdo modelining yangi sifat darajasiga ko‘tarilganini ko‘rsatdi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Surxondaryo viloyati tashqi savdosining 2010-2025-yillar oralig‘idagi tarkibiy o‘zgarishlari hududiy iqtisodiyotning xalqaro mehnat taqsimotiga integratsiyalashuvi izchil yo‘nalishlardan biri sifatida shakllanganini ko‘rsatdi. Tahlil viloyatning tashqi savdo aylanmasi ko‘p tarmoqli kengayish naqshiga ega bo‘lganini, agrar mahsulotlar yetakchi eksport tovari sifatida saqlanib qolgan holda to‘qimachilik, dori-darmon va qimmatbaho metallar guruhlari ulushi sezilarli darajada oshganini ko‘rsatdi. Geografik diversifikatsiya jarayoni faollashdi: an’anaviy MDH bozorlaridan tashqari Janubiy Osiyo, Yaqin Sharq va Markaziy Osiyo yo‘nalishlari bo‘yicha eksport oqimlari kengaydi.

Savdo balansining barqaror musbat saldoga o‘tishi import hajmini muvozanatlashtirish, mahalliy ishlab chiqarish quvvatlarini joriy etish va eksportga yo‘naltirilgan loyihalarning samarali ishga tushirilishi bilan bog‘liq tarzda baholandi. Olingan natijalar viloyat tashqi savdo modelining yangi sifat darajasiga ko‘tarilishini hujjatlashtirib, mintaqaviy iqtisodiy siyosatning eksport diversifikatsiyasiga qaratilgan yo‘nalishini empirik asoslashga xizmat qildi.

Olingan natijalar asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. Eksport tovarlar nomenklaturasini chuqurlashtirish maqsadida qayta ishlash sanoati infratuzilmasini rivojlantirish, qo‘shilgan qiymati yuqori mahsulotlar ishlab chiqarish quvvatlarini bosqichma-bosqich kengaytirish maqsadga muvofiqdir. Mahalliy paxta-to‘qimachilik klasterini yakuniy mahsulot bosqichigacha yetkazish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash quvvatlarini joylashtirish ushbu yo‘nalishning amaliy mexanizmlari sifatida ishtirok etishi mumkin [10].

2. Logistika koridorlari, jumladan Termiz-Hayraton-Mazori-Sharif yo‘nalishi salohiyatidan to‘liq foydalanish, transport-tranzit infratuzilmasini takomillashtirish viloyatning eksport potensialini kuchaytirishga ko‘maklashadi. Termiz ko‘p tarmoqli logistika markazining funksional imkoniyatlarini kengaytirish chegaralarda savdo aylanmasini jadallashtirishga olib keladi [11].

3. Eksport bozorlarini diversifikatsiyalash dasturlari doirasida yangi geografik yo‘nalishlar - Hindiston, Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari, Fors ko‘rfazi mintaqasi va Yevropa Ittifoqi bilan iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash maqsadga muvofiqdir. Maqsadli bozorlar bo‘yicha marketing strategiyalarini ishlab chiqish, savdo missiyalari va ikki tomonlama biznes-forumlarni faollashtirish ushbu yo‘nalishning operatsion vositalari sifatida xizmat qiladi [12].

4. Mahalliy ishlab chiqaruvchilarning xalqaro sifat standartlariga muvofiqligini ta'minlash, sertifikatlash xizmatlari tarmog'ini kengaytirish, eksport kreditlash va sug'urtalash mexanizmlarini takomillashtirish lozim. Maxsus iqtisodiy zonalar va erkin iqtisodiy zonalar imtiyozlari hisobiga eksportga yo'naltirilgan investitsiyalarni jalb qilish mintaqaviy savdo modelining institutsional asosini mustahkamlashga xizmat qiladi [13].

5. Mintaqaning chegara mavqeyidan kelib chiqib, qo'shni davlatlar bilan kichik chegara savdosi rejimini soddalashtirish, qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari bo'yicha sertifikatlash protseduralarini ikki tomonlama tan olish hududiy savdo aylanmasini yanada kengaytirishga zamin yaratadi [14].

Yuqorida bayon etilgan yo'nalishlarning izchil amalga oshirilishi viloyat tashqi savdosining barqaror o'sishini ta'minlaydi, mintaqa eksport portfelining qo'shilgan qiymat tarkibini takomillashtiradi va Surxondaryo viloyatining xalqaro iqtisodiy aloqalardagi mavqeyini mustahkamlashga xizmat qiladi [15].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi. Tashqi savdo statistikasi (2010-2025 yillar). Rasmiy veb-sayt: https://surxonstat.uz/uz/
2. O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo'mitasi. Tashqi iqtisodiy faoliyat statistikasi. Rasmiy veb-sayt: https://stat.uz/
3. Ricardo D. On the Principles of Political Economy and Taxation. Library of Economics and Liberty. URL: https://www.econlib.org/library/Ricardo/ricP.html
4. Porter M. E. The Competitive Advantage of Nations. Harvard Business Review. URL: https://hbr.org/1990/03/the-competitive-advantage-of-nations
5. World Bank. Uzbekistan Country Economic Update. Official report. URL: https://www.worldbank.org/en/country/uzbekistan/publication/economic-update
6. UNCTAD. Trade and Development Report 2024. URL: https://unctad.org/publication/trade-and-development-report-2024
7. International Monetary Fund. Republic of Uzbekistan: Article IV Consultation Reports. URL: https://www.imf.org/en/Countries/UZB
8. O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi. Eksportni rivojlantirish dasturlari. Rasmiy veb-sayt: https://miit.uz/
9. World Customs Organization. Harmonized System (HS) Nomenclature. URL: https://www.wcoomd.org/en/topics/nomenclature/instrument-and-tools/hs-nomenclature-2022-edition.aspx
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni https://lex.uz/docs/5841063
11. Asian Development Bank. Central Asia Regional Economic Cooperation (CAREC) Program - Transport Corridors. URL: https://www.carecprogram.org/?page_id=31
12. International Trade Centre (ITC). Trade Map - Trade statistics for international business development. URL: https://www.trademap.org/
13. O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi. Tashqi savdo statistik byulleteni. Rasmiy veb-sayt: https://customs.uz/
14. World Trade Organization. World Trade Statistical Review 2024. URL: https://www.wto.org/english/res_e/publications_e/wtsr_2024_e.htm
15. Eurasian Development Bank. Macroeconomic Outlook of EAEU and Central Asia. URL: https://eabr.org/en/analytics/

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o‘g‘li

2026. № 5

© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz